



**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION,
SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**“ISSUES AND CHALLENGES OF MODERN
LINGUISTICS IN NEW UZBEKISTAN:
LINGUOCULTUROLOGICAL,
PRAGMALINGUISTIC,
NEUROPSYCHOLINGUISTIC AND
LINGUOFOLKLORISTIC APPROACHES”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC &
THEORETICAL CONFERENCE**



PKP|INDEX

BUKHARA -2024

<i>Bobokalonov R.R. & Bobokalonov P.R. Role of smiling in interpersonal relationships, smiling and laughter symptoms.....</i>	373
<i>Bobokalonov R. & Klimentova Z. Neuropsycholinguistic problems of semantic-functionally formed speeches.....</i>	381
<i>Bobokalonov R.R. & Saidova O.S. Neuropsycholinguistics: motivational competence in the prevention of stroke in charismatic individuals.....</i>	388
<i>Ergasheva G.I. & Mahmudova R.Z. Neyrolingvistikaning jamiyatimiz taraqqiyotidagi tutgan oʻrni.....</i>	393
<i>Фарходова М. Психолингвистическая характеристика основных особенностей французского дискурса моды.....</i>	398
<i>Jabbarova M.X. & Rahimova M.F. Ayol obrazidagi paradigmatic munosabatlar.....</i>	403
<i>Жунусова Ж.Н. Современные двуязычные словари коммуникативной направленности в аспекте прагмалингвистики.....</i>	409
<i>Joʻrayeva M.M. & Kenjayeva O.F. Kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslar va metodlari.....</i>	414
<i>Joʻrayeva M. & Baxtibayeva A. Reklama matnlarining fransuz tilidan oʻzbek tiliga tarjimasidagi jozibadorlik.....</i>	421
<i>Kamolova S.J. Utilisation des noms personnels et recherché intentionale du sens éponymique.....</i>	425
<i>Narzoullaeva D.B. & Sharipboyeva D.B. Exploration des traductions du Coran: Étude scientifique, impact culturel et historique.....</i>	430
<i>Nasimova F.S. & Gʻaipova G.X. Fransuz gastronomik terminosferasining oʻziga xos xususiyatlari.....</i>	435
<i>Nasibboyeva M. Extralinguistic factors of economic vocabulary development: linguistic and cultural aspect.....</i>	440
<i>Rustamova F.I. & Kuchimova K.Y. Diskurs, nutq va astronomik terminlar talqini.....</i>	446
<i>Roʻziyev Y.B. Nemis adabiy tilida oʻzlashtirma nutq.....</i>	451
<i>Sobirova D.R. Functional-pragmatic characteristics and classification of advertising.....</i>	455
<i>Xamidova M.H. & Oʻktamova G.X. Fransuz tilida vaqt tushunchasining leksik ifodalanishi.....</i>	461
<i>Xamidova M.H. & Nusratilloeva D.Z. Fransuz tilida minnatdorchilik konsepti va modallik kategoriyasida ifodalanishi.....</i>	465
<i>Хаятова Н.И. & Бекмуродова С.И. Характерные черты сленга: сленг в смс и грамматические средства выражения.....</i>	469
<i>Xolova Sh.D. & Mahmudova D.O. Ijobiy emotiv frazemalar: komponentlar tarkibi va tahlili.....</i>	480
<i>Shahabitdinova Sh.H. & Davlatova H.U. Muloqotda gender xususiyatlarining aks etishi.....</i>	484
3-SHOʻBA. ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA LINGVOFOLKLORISTIKA TADQIQOTLARI.....	489
<i>Abdullayeva N.N & Yakubova A.O. Caractéristiques nationales des proverbes français.....</i>	490
<i>Абдуллаева Н. & Мухамадова Г. Французская культура: пословицы, с благополучия к искусству жизни.....</i>	495
<i>Абдуллаева Н. & Тешаева М. Тематические сходства узбекских и французских пословиц.....</i>	500
<i>Adizova O.I. Fransuz folklorshunosligida bolalar oʻyinlarining oʻziga xos xususiyati.....</i>	505
<i>Adizova O.I. & Jumaboyev Z.R. Maqollar va ularning kelib chiqish tarixi.....</i>	509
<i>Adizova O.I. & Qodirova G.S. Xalq epik janrida afsonalarning oʻrni.....</i>	514
<i>Adizova O.I. & Sharipov M.V. Tarixiy va zamonaviy asarlarning yaratilish tarixi va til xususiyatlari.....</i>	518
<i>Akramov B.Q. & Zaripov J.A. Caractéristiques linguistiques des terminologiques commerciales français.....</i>	523
<i>Arziqulova X.A. & Kodirova D.M. Muhabbati rad etilgan Fedra.....</i>	529
<i>Bakaeva M.K. & Salimova H. Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida ona obrazini yaratishda qoʻllangan uslubi vositalar.....</i>	534
<i>Bobokalonov O.O., Akhmatova N.A. & Khayrullayeva S.A. Représentation symbolique des phytonymes dans les titres des œuvres françaises en prose.....</i>	538
<i>Haydarova N. Baxtin qarashlarida interdiskursivlik kategoriyasining oʻziga xos xususiyatlari.....</i>	547
<i>Инамова М.Т. Способы презентации фразеологического материала в процессе изучения английского языка студентами первого курса филологических факультетов.....</i>	550

TEODOR DRAYZERNING “AMERIKA FOJIASI” ROMANIDA ONA OBRAZINI YARATISHDA QO‘LLANGAN USLUBIY VOSITALAR



Bukhara, Uzbekistan



Baqoyeva Muhabbat Qayumovna

Filologiya fanlari doktori, professor

Xorijiy tillar fakulteti

Buxoro davlat universiteti

✉ m.q.baqayeva@buxdu.uz

Salimova Hulkar Hayot qizi

Magistrant

Xorijiy tillar fakulteti

Buxoro davlat universiteti

✉ hulkarsalimova02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida ona obrazini yaratishda qo‘llangan uslubiy vositalar va ularning matnda bajargan vazifasi asardan olingan misollar vositasida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy hayot, jamiyat, uslubiy vosita, badiiy tasvir, o‘xshatish, sifatlash, metonimiya, metafora, timsol.

Abstract. In this article the stylistic devices used to create mother’s image in Theodore Dreiser’s novel “American Tragedy” and their function in the given text are considered by analyzing examples taken from the work.

Keywords: social life, society, stylistic device, literary description, simile, epithet, metonymy, image.

Аннотация. В данной статье анализируются стилистические приёмы, использованные при создании образа матери в романе «Американская трагедия» Теодора Драйзера и их функции в разных контекстах из произведения.

Ключевые слова: общественная жизнь, общество, стилистический приём, художественный образ, сравнение, эпитет, метонимия, образ.

Kirish.

Amerika yozuvchisi Teodar Drayzer uzining nodir yozuvchilik iqtidori, tabiat va jamiyatdagi ozgarishlar jarayonini, insonlarning o‘zaro munosabatlarini yaxshi tushungani va ularni realistic tasvirlay olgani tufayli dunyoning ko‘pgina xalqlarining sevimli ijodkoriga, shu jumladan o‘zbek kitobxonlarining ham, sevimli yozuvchisiga aylangan. Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida yaratgan ona obrazi ozbek o‘quvchisida ancha murakkab va o‘chmas iz qoldiradi.

Asosiy matn.

Tabiiyki, Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida tasvirlangan muhit sharq hayotidan ancha yiroq. Sharqda oila muqaddas hisoblanadi. Oilada ota-onaning muhim o‘rni bor. Ular tarbiyaning ilk o‘chog‘i, farzandlarga hayot haqida, qanday yashash to‘g‘risida qimmatli o‘git bera oladigan insonlardir. Oilaning qadrini bilgan inson esa g‘arb hayotida ustun bo‘lgan “erkinlik”ni oilaviy baxtga alishmaydi. Bu erkinlik sharq odamining mafkurasiga yot. “Shuning uchun Drayzer yozgan muhit anchayin bizni hayratga soladi. O‘z farzandlari hayotiga aralashish huquqiga ega bo‘lmagan ota-onalarni ko‘rib hayron qolamiz. Sharqda esa bola yetmish yoshida ham ota-onasi uchun go‘dak. Adib tasvirlagan voqealarda asosiy ayb jamiyat hamda uning a‘zolari miyasiga o‘rnashib qolgan bo‘lmag‘ur fikrlarda.”[7, 378]

Nihoyatda kambag‘al, qashshoqlikda kun kechiradigan Klaydning onasi Griffiths xonim matonatli inson. Asarning boshlanayotganida, Klaydning opasi nochor holatga tushganidayok, onaning o‘zi kambag‘al bo‘lishiga qaramay, qizining mushkulini oson kilishga harakat qiladi. Asarda mavjud deyarli barcha personajlar manfaatparast, boylikka o‘ch va irodasiz. Faqat onagina bundan mustasno. Drayzer ona obrazida kuch-qudrat, kuchli iroda, so‘nmas ruh timsoliga ega bo‘lgan ayolni ko‘rsatgan.

Romanning bosh pratagonisti Klayd boylikka berilib, ma’shuqasi Robertani o‘zi xohlab-xohlamay o‘ldirib qo‘yadi. Go‘zal va boy Sondra Finchliga erishish maqsadida Robertaning jonsiz tanasini ko‘lda qoldirib qochib ketadi. Boylik va mansabga o‘chlik Klaydni butkul boshqa insonga aylantiradi. Buning natijasida u qamoqqa olinadi va sud uning jinoiy ishini o‘rganadi. Klaydning suddagi himoyachisi ham uning aybsizligiga ishonmaydi. Hattoki undan barcha bo‘lgan voqeani eshitgan rohib ham, uni aybdor deb biladi. Faqatgina onasi uning aybsizligiga shubhalanmaydi va bor kuchini o‘g‘lini o‘lim jazosidan qutqarishga sarf qiladi:

“But now that she was here she hoped to stay. The Lord would provide the means for the salvation of her son, of whose innocence she was convinced. Would they not ask God to help her? Would they not pray for her success? And with the several reporters not a little moved and impressed, assuring her that they would, of course, and thereafter describing her to the world at large as she was—middle aged,

homely, religious, determined, sincere and earnest and with a moving faith in the innocence of her boy" [2, 993]

Yuqoridagii parchada yozuvchi onani yagona kuch va qat'iyat sohibasi ekanligi bilan ajralib turishini, Klaydning sudlanishi jarayonida faqatgina u o'g'lining gunohsizligiga ishonganini, hech kimdan madad kuta olmasligini bo'lgandan keyin faqat Parvardigordan madad so'raganini bayon etgan. Onani "middle aged, homely, religious, determined, sincere and earnest and with a moving faith in the innocence of her boy" (o'rta yosh, xonaki, qat'iyat va diniy imoni mustahkam, samimiy, o'zi jiddiy va o'g'lining begunohligiga boshdan-oxir, butunlay ishongan bir ayol) sifatida ta'riflab, ketma-ket kelgan epitetlar vositasida ona tabiatidagi barcha qirralarni badiiy-emotsional tasvirlaydi.

Klaydning otasi ham shu paytda o'lim to'shagida yotgan bo'ladi. Bechora ona shu nochor kambag'al hoida ham erining, ham o'g'lining dardiga davo bulishga harakat qiladi. Ona oxirigacha kurashganiga qaramay, oliy sud appelyatsiyani rad etib Klaydni elektr o'rindig'i vositasida qatl etishga qaror qiladi.

Bu romandagi deyarli barcha personajlar manfaatga berilgan: Klayd Boylikka, Sondra Finchli va Roberta Olden "Griffits" familiyasi obro'siga, Orvin Meyson lavozim (merlikka), Fred Xeyt izquvar merining ko'ziga yaxshi ko'rinishga intilib, qaysidir biri o'z burchini ado etmaydi, qaysidiri esa sevgisidan va oilasidan voz kechadi. Faqatgina ona obrazi oxirigacha irodali va kuchli bo'lib qoladi.[6, 396]

Ilgarilari ota uyidan, ularning yashash tarzidan, kiyinishidan or qilgan Klayd, endi o'limi oldidan hayotdagi ushbu narsalarga e'tibor qilmaydi:

"No longer did the shabby coat and the outlandish hat and the broad, immobile face and somewhat stolid and crude gestures seem the racking and disturbing things they had so little time since. She was his mother and she loved him, and believed in him and was struggling to save him." [2, 994]

Endi onasining eski (**shabby**) paltosi, urfdan qolgan (**outlandish**) shlyapasi va katta, harakatsiz (**immobile**) yuzi, qo'pol (**crude**) qo'l ishoralari uni tashvishga solmaydi. Hammadan muhimi, u Klaydning onasi edi, o'g'lini sevardi, unga ishonardi va uni qutqarishga harakat qilardi. Lekin Klayd buni faqat o'limi arafasida tushunadi. Bu misolda ham muallifning epitetlardan keng foydalangani ko'rinib turibdi. Bundan tashqari, yuqoridagi misolda harakat va holatga kuchli urg'u berish maqsadida bog'lovchilar bir necha bor takrorlangan. (Polysindeton): *She was his mother and she loved him, and believed in him and was struggling to save him.* I.R.Galperinning ta'kidlashicha, nasriy asarda polysindeton uslubiy vositasi qo'llanganda, nasriy asarlarga xos bo'lmagan ritm yaratiladi va bu o'quvchining e'tiborini shu uslubiy vosita qo'llangan matnga tortadi [1, 226-227]

Ko'rinib turganidek, yuqorida keltirgan misollarimiz, asosan, epitetlardan iborat bo'ldi, chunki "Amerika fojiasi" romanida badiiy tasvir ko'p qo'llangani tufayli, unda epitetlar ko'p uchraydi. Ammo muallif boshqa leksik uslubiy bositalardan, garchi epitetlar darajasida bo'lmasa ham, foydalangan.

Mas.: "Mr. Squires proceeded to explain that this hotel was very strict." [2,49]

Ushbu gapda metonimiya uslubiy vositasi qo'llangan, ya'ni "mehmonxona pahlaviyati" so'z birikmasi o'rnida "hotel" so'zi qo'llangan bo'lib, mehmonxona juda qattiqqo'l deyilgan. Bu bilan muallif mehmonxona xodimi nutqini og'zaki nutqqa yaqinlashtirgan.

Quyidagi misolda esa muallif o'xshatish uslubiy vositasini qollab, Klaydning chiroqli boylik manzaralariga hayratlanib qaraganini tasvirlagan:

Clyde stared, even while pretending not to. And in his state of mind, this sight was like looking through the gates of Paradise. [2, 63]

Bu o'rinda Klaydning boylik dunyosiga go'yoki Jannat darvozasidan mo'ralaganday qaragani, uning hirsu havaslarining balandligi badiiy o'xshatish vositasida obrazli tasvirlangan.

Quyidagi gapda esa metafora uslubiy vositasiga duch kelamiz:

He was now up, standing—mentally and physically frozen really—his eyes touched with a stony glaze for the moment. [2, 718]

Bunda Klaydning suddagi holati tasvirlangan. U qilib qo'ygan ishidan o'zi ham hayron va pushaymon bo'lib, aqliy va jismoniy jihatdan muzlagan edi.

Ushbu metafora Klaydning Roberta o'limidan keyingi suddagi holatini obrazli tarzda ifodalab, uning butun vujudi muzlaganini, qatl etilishini bilgandan keyin dunyoning ishlariga loqayd qaraganini, barcha urinishlari bekor ketib, insonga xos bo'lgan barcha hissiyotlar uni tark etganini, ya'ni muzlagan jism hech nimani sezmasligini, ko'zi ochiq bo'lsa ham karaxt uyqu holatida ekanligini atigi bir nechta so'z vositasida obrazli va emotsional tasvirlagan.

Xulosa.

Xullas, Teodor Drayzer o'zining "Amerika fojiasi" romanida ona va uning o'g'li Klayd obrazini yaratishda uslubiy vositalardan mohirlik bilan foydalanib, asarning o'quvchiga badiiy-estetik ta'sirini ta'minlagan. Asarda hamisha o'z dilbandining kamolini ko'rishni istab, bolasiga hech qachon soxta mehr bermaydigan, baxtsizlik, omadsizliklarni ravo ko'rmaydigan, dilbandining barcha qilmishlariga chidaydigan, unga doim Parvardigordan madad so'raydigan mushtipar ona obrazi yaratilgan va bu obrazni yaratishda uslubiy vositalar muhim ahamiyat kasb etgan.

Adabiyotlar:

1. Galperin I.R. Stylistics. - Moscow: Higher School Publishing House, 1977.
 2. Dreizer, Theodore. An American Tragedy. <http://www.kargtpdf.com>. -E-Bookarama Editions.
 3. Drayzer Teodor. "Amerika fojiasi" – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
 4. Засурский Я.Н. Теодор Драйзер: жизнь и творчество. 1977.
 5. Kathryn VanSpankeren. Outline of American Literature. – USA, 1994.
 6. Ochilov U.S "Teodor Drayzerning "Amerika fojiasi" romanida ona obrazi. BuxDU." Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish: strategiya, innovatsiya va ilg'or tajribalar xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2021.
- Raximov M.M. "Amerika fojiasi romanida ayol obrazi". *Yoshlar ilmiy qotichilar jurnali*. Vol.1 No.3 (2022)